



Ancient Turkic monuments in Eshkobil Shukur's works: imagery and methods of expression

Nargiza NORMURODOVA¹

Gulistan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

10 February 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

image,
style of expression,
mastery of word usage,
ancient inscriptions,
power of words,
magastvi.

ABSTRACT

This article discusses the work of Eshkobil Shukur, a poet who has been contributing to Uzbek poetry with his prolific work, and his poems infused with a unique folk-like rhythm. The article focuses on Eshkobil Shukur's remarkable and unique poems about inscriptions on ancient historical tablets, providing an artistic analysis of these works.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3/S-pp253-259>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Eshqobil Shukur ijodida qadimgi turkiy yodgorliklar: obraz va uning ifodalanish usullari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

obraz,
ifoda uslubi,
so'z qo'llash mahorati,
qadimgi bitiktoshlar,
so'z qudrati,
mag'astvi.

Ushbu maqolada o'zining sarmahsul ijodi bilan o'zbek she'riyatiga hissa qo'shib kelayotgan shoir Eshqobil Shukurning ijodi, uning o'ziga xos xalqona ohang bilan yo'g'rilgan she'rlari xususida so'z yuritiladi. Eshqobil Shukurning qadim tarix zarvaraqlaridagi bitiktoshlar haqidagi ajoyib, takrorlanmas she'rlariga murojaat etib, badiiy tahlil qilinadi.

¹ PhD, educator-pedagogue, Creative School named after Khalima Khudoyberdieva, Gulistan State University.
E-mail: nargizanormurodova1982@gmail.com

Эшқобил Шукур в творчестве древнетюркских памятников: образ и способы его выражения

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

образ,
манера выражения,
умение использовать
слова,
древние писцовые камни,
сила слова,
магастви.

В данной статье рассматривается творчество поэта Эшқобила Шукура, который вносит значительный вклад в узбекскую поэзию своими плодотворными произведениями, и его стихи, проникнутые своеобразной народной мелодичностью. Обращаясь к прекрасным, неповторимым стихотворениям Эшқобила Шукура о надписях на каменных плитах, хранящихся на золотых страницах древней истории, проводится художественный анализ его творчества.

Biz bilamizki, mustaqilligimiz tufayli har jabhada juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, ma'naviyatimizning asosi bo'lgan o'zbek adabiyotiga, so'z san'atiga bo'lgan qarashlar, munosabatni yaratilgan badiiy asarlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Mustaqilligimiz ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi, o'zligimizni yanada yaqqolroq anglashimiz uchun juda katta zamin yaratib berdi. Bu yangi davr adabiyot tarixiga ham boshqacha nazar bilan qarash imkonini berdi. Bu esa, albatta, zamonaviy-badiiy jarayonga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Ayniqsa, o'zbek she'riyatida bu tub tarixiy evrilishlarning akslarini ko'ra boshladik. O'zbek she'riyati yetarli darajada ma'naviy miqyosdan, badiiy salohiyat nuqtai nazaridan ham o'sdi. Bu she'riyatning alohida ajralib turadigan jihati shu ediki, bunda shoir qalbidagi his-tuyg'ularini ko'proq aks ettira boshladi. Yangi mustaqillik davri o'zbek she'riyatida xalqimizning har bir a'zosida bo'lgani kabi ijodkorlar, xususan, shoirlar qalbida ham mustaqillikka shukronalik tuyg'usi bo'lishi bilan birga buyuk kelajagimizga bo'lgan ishonch ham bor edi, albatta. Bu davrda sermahsul ijod qilgan shoirlar Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Oydin Hojiyeva, Iqbol Mirzo, Abduvali Qutbiddin, Salim Ashur, Faxriyor, Xosiyat Xusanova, Qo'chqor Norqobil, Omon Matjon kabi shoirlar orasida o'z yo'li va ovozigga ega shoir Eshqobil Shukurning ham alohida o'rni bor, albatta.

“Osha tanish ohang shoirni boshqalardan ajratib “Bu Eshqobil Shukur she'ri” deb shivirlagan ohang va rangin tuyg'ular, yangi ohanglar bilan o'rangan. Bu she'rlardan ufurib turgan harirlik, osha ko'xna she'rni she'r qilib kelgan hech qachon baqirmaydigan, faqat shivirlaydigan hazinlik, kishini tushkunlikka emas, yorug'likka chorlaydigan hazinlik, yorqin tus olgani va tozaligi, Ibrohim muallim aytmoqchi “jadidiy” ma'nosi bilan ajralib turadi..” [1].

Darhaqiqat, Eshqobil Shukur she'riyati hazin ohanglar emas, qalbni yashnatuvchi, ruhni davolovchi nozik bir tizmalardir. Eshqobil Shukur she'riyati ozining ohangdorligi, go'zallikni tarannum etuvchi, goh tarixning eng buyuk, qadimiy davrlariga murojaat eta olgan, o'sha qadim navolarni qalblarimizda uyg'ota olgan inja bir she'riyatdir. Ayniqsa, shoir ijodini bezab turuvchi xalqona ohang va qadimiy navolar Eshqobil Shukurning xalq va vatan taqdiri, kelajagi, tarixi oldida naqadar burchli ekanligidan dalolat beradi. Eshqobil Shukur o'zbek adabiyotida o'z o'rnini topa olgan, o'z ovozigga ega bo'lgan shoiridir. Shoirning ilk she'riy to'plami “Yurakni o'rganish” (1984) nomi bilan chop etilgan. Shundan so'ng uning “Sochlari sumbul” (1988), “Yashil qushlar” (1995), “Hamal

ayvoni” (2000) she’riy kitoblari va 2005-yilda “Ko’xna bog’ rivoyatlari” nasriy kitobi nashr etilgan. “Naqshband”, “Ibtido xatosi” kabi dostonlari “Nasoyim-ul muhabbatga sayr” turkumi, shuningdek, “Oqibat oqshomi”, “Dunyoning ko’chishi” kabi qissalari ham keng kitobxonlarning sevimli asarlariga aylanib ulgurgan. 2022-yil nashr etilgan “Bobosoz izidan” nomli qayta to’ldirilgan nashri tez fursatda o’zbek ziyolilarining e’tiborini qozondi. Ijobiy ma’nodagi katta shov-shuvlarga sabab bo’lgan “Bobosoz izidan” kitobi yozuvchi Eshqobil Shukurning ona tilimizga bo’lgan mehr-muhabbatidan darak beradi. Kitobning bosh sahifasidagi “mehr va muhabbat bilan, azizim, mehribonim, suyaklim ona tilimga bag’ishlayman” degan jummalari fikrimiz dalilidir.

O’zbek she’riyatining zabardast vakillaridan biriga aylangan Eshqobil Shukur ijodida o’ziga xos ohanglarni, ezgulikka yo’g’rilgan misralarni, Vatan tarixining eng ko’xna davrlariga murojaat etib, ularni bugungi kun nigohi bilan ko’ra olgan shoir qalbini sezgandek bo’lamiz.

Shoirning qalb istagi, ko’ngil amri bu she’r yozmoqdir. She’r yozganda ham insonning qalbiga, yuragiga ta’sir eta oladigan, uni mushohadaga chorlab, junbishga keltira oladigan misralarni topib yozishdir. Eshqobil Shukur ijodining mavzu ko’lami rang-barang. Unda momolarimiz dildan kuylagan o’sha qadim yor-yor ohanglarini ham, keng dalada javlon urgan bolakay o’yingaroqliklari-yu, hammaga tanish sevgi-muhabbat ohanglarini ham bot-bot uchratish mumkin. Fikrimiz dalili sifatida shoirning “Ko’ngil yoshi” she’ridagi mana bu misralarga quloq solaylik-chi:

“Ko’nglim gulga to’ldi alvon daladay,
Unda yalpizbo’yli yellar yeladi
Huv kitob qo’ltiq lab yurgan boladay,
Mening go’zal she’rlar yozgim keladi.”
Yoki:
“Umr bahorimi, kuzmi, qishimi,
Ulug’lab o’tarman ulug’ hayotni
Har kim yashab o’tsin ko’ngil yoshini
Har dil Vatan tutsin Adabiyotni [2]

Shoir Eshqobil Shukur she’rlarida ana shunday she’riyatga, adabiyotga bo’lgan go’zal bir beg’ubor sevgini ko’ramiz. Hayotni sevish, umrning qay fasli bo’lsa-da, uni ulug’lash shoir qalbining muddaosidir. Xalqona ohanglar bilan sug’orilgan Eshqobil Shukur ijodi har qanday inson yuragiga qadim-qadim, sokin va betimsol navolarni olib kiradi. O’zbek xalqining boy tarixiy o’tmishi, ma’naviyati, madaniyatini o’zida aks ettirgan shoir ijodi alohida bir tahsinga loyiqdir. Masalan, o’sha qadim kuy-navolarni yodga soluvchi mana bu “Sumbula” she’riga bir quloq tutaylik-a:

“Sumbula-yo, sumbula,
O’rab olay gul bilan.
Mening ko’nglim siz bilan-ey,
Siz ketasiz kim bilan?
Sumbula, jon, sumbula.

Turnalarim ketmoqdalar
Ko'z yoshday qator-qator.
Turnalarim ketmoqdalar sochlaringizday uzun.
Osmonda bulut bo'lib yig'laydi g'amgin bahor
Qaldiraqlar qulab ketar.
Ko'kdan yerga siz uchun
Sumbula, jon, Sumbula,
Siz ketasiz kim bilan? [3].

Eshqobil Shukur ijodida bu kabi milliylikimiz aks etgan qadimiy qo'shiqlarni ko'p uchratishimiz mumkin. Bunday xalqona ohanglar, albatta, har qanday kitobxonni o'ziga maftun eta oladi. Hattoki, Eshqobil Shukurning bu kabi she'rlari ko'plab ustoz xalq shoirlarining mehr va e'tibori, chin ma'nodagi e'tiroflariga ham sazovor bo'lgan. Masalan, O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim shoir she'rlariga shunday ta'rif beradi: "Eshqobilning she'rlari g'alati-go'yo ko'pni ko'rgan odamning yozganiga o'xshaydi: bosiq va chuqur, shu bilan birga satrlarida allaqanday jangovarlik, qaysarlik bor. She'rlari unutilayozgan ohanglarga, unutilayozgan so'zlarga boy" [4]. Yoki O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zam ham Eshqobil Shukur ijodining alohida qirrasini haqida mana shunday iliq fikrlarini aytadi: "She'r so'zi bo'lmaydi. Demokichimanki, so'zlar orasida she'rga mo'ljallangan alohida so'zlar bo'lmaydi. Lekin chin shoirning qo'liga tushsa, hamma so'z she'r bo'ladi. Eshqobil juda xalqchil shoir. Shunday bo'lsa-da, boshqalarga o'xshamaydi. Men qidirib ko'rdim, kimga o'xshar ekan deb, yo'q, o'xshamaydi." [5]. Darhaqiqat, Eshqobil Shukur ijodining eng muhim bezab turuvchi, ungagina xos bo'lgan bu jihat uning xalqchilligidir. Bizga ma'lumki, shoir ijodidagi "Hamal ayvoni" to'plami alohida ahamiyatga ega. Negaki, bu to'plamda shoirning eng sara she'rlari jamlangan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, bu to'plamda shoir qadimgi yodgorliklarimiz bo'lgan bitiktoshlar haqida o'zining dildagi hasrati, armonini aks ettiradi. "Hamal ayvoni" kitobining bosh sahifasidagi quyidagi so'zlarga e'tibor qaratamiz: "... she'rlarda insonning ruhan ozodligi, qalb kechinmalari badiiy talqin etiladi. Shoirning she'rlari majoziy sifatlari, xalqning qadimiy ohanglarini o'ziga singdirgani bilan ayricha go'zal bir manzara hosil qiladi. So'fiyona naqlar, fikrlar taloshida suvratlanadiki, bu hol nazm hamisha ilohiyotdan suv ichajagiga botinda yana bir karra ishonch uyg'otadi" [6]. Darhaqiqat, Eshqobil Shukur qalamiga mansub "Hamal ayvoni" she'riy to'plamining "Qadimgi daftar yoxud unutilgan ohanglar" turkumi she'rlari o'ziga xos shoirona uslubda, o'ziga xos ifoda yo'sini bilan ajralib turadi. Bu turkum she'rdagi "Vatan" (qadimgi bolaning qadimgi qo'shig'i), "Irg bitigi" ga bitik, "Sevgi", "Yonib ketgan marsiya bo'laklari", "Qadimgi shoirning tug'ilishi", "Fasllar haqida ibtidoiy bitik", "Kuyov", "Istibdod", "Yo'qolgan bitiktoshdagi yozuv", "Qadimgi kuy", "Singilga bag'ishlov", "Ko'xna yurt haqida yangi she'r" kabi turkum she'rlari o'zbek xalqining eng buyuk tarixga ega millat sifatida hayot kechirganini, hech bir millat tenglasha olmaydigan juda yuksak tarixi, shajarasi, buyuk-buyuk ajdodlari borligidan faxrlanadigan xalq ekanligini anglatuvchi she'rlardir.

Bizga ma'lumki, xalqimiz ma'naviyatining shakllanishida uzoq o'tmishda yaratilgan yozma yodgorliklar alohida ahamiyatga ega. O'rxun-Enasoy yodgorliklari tarkibiga kirgan qadimiy bitiktoshlar ana shu uzoq o'tmish, tarix haqida so'zlovchi qimmatbaho manbalardir. Bu bitiktoshlar bilan tanishgan har qanday insonning ko'nglida Vatan tarixini, adabiyotini, ilmiy-madaniy merosini, qadim-qadim ildizlarini sinchiklab

o'rganish istagi paydo bo'ladi. O'rxun-Enasoy yodgorliklari tarkibiga kirgan "Tunyuquq bitigtoshi", "Kul Tegin bitigtoshi", "Bilga xoqon bitigtoshi", "Irq bitigi" kabilarni o'qib hayratga tushib, turkiy xalqlarni birlashtirib, o'z erki uchun kurashgan xalq yetakchisi, dono maslahatchi, kuchli, botir sarkardalar haqidagi bitiklar shoir Eshqobil Shukur qo'lga ham qalam tutqazgan bo'lsa, neajab. Shoir Eshqobil Shukur "Hamal ayvoni" to'plamidagi "Qadimgi bitiktoshlarga yozuvlar" turkum she'rlarida ana o'sha bitiktoshlardan olgan hissiyotlarini to'kib soladi.

"So'z ilohiy ne'mat, shu bois so'z aytish hamisha ulkan mas'uliyatdir. Jamiyat, millat yoki insonga qilinadigan zulm uning so'ziga zug'umdan boshlanadi. Har qanday erk ham so'z hurligidan ibtido oladi. Shu boisdan so'z erkinligi hur insonning dastlabki talabi hisoblanadi" [7]. – deydi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev. Darhaqiqat, so'z muqaddas va qudratli kuchga ega ilohiy ne'matdir. Shoir Eshqobil Shukur ham ana ilohiy ne'mat so'z qudratini e'tirof etgan holda "Qadimgi bitiktoshlarga yozuvlar" turkumidagi 1-she'rni ham "So'z" deb ataydi va buni shunday izohlaydi:

"Baridan muqaddas so'z bo'ldi faqat
Tangrilar insondan qizg'ongan daho
Boshi bir yoqadan chiqqan mamlakat,
Mangulikni yo'rgaklagan ibtido.
Baridan muqaddas so'z bo'ldi faqat.
Olamdan o'tganni tuproq ostiga,
Tuproqning ustiga so'zni qo'ydilar
Quyoshdan uyalib, oydan uyalib,
Yalang'och yuraklar so'zni kiydilar" [8].

Shoir ushbu "Olamdan o'tganni tuproq ostiga, tuproqning ustiga so'zni qo'ydilar" misralari orqali har qanday inson bu dunyoni tark etsa-da, ammo undan faqat yaxshi a'mol qolajagini ta'kidlab o'tadi. Ya'ni so'z uning yodi, yo yaxshi, yoki yomon yodi bilan inson abadiy qolajagini uqtiradi. Nafaqat inson, balki, butun bir boshli mamlakatning ibtidosi so'zdan boshlanib, so'z bilan tugaydi. Ahil, inoq, birlashgan xalqqina dunyoda o'z qudratli "so'z"ini ayta oladi, deydi shoir. "Chinakam shoir she'r yozayin deb emas, balki bag'ridagi olov shashtini pasaytirayin deb, chorasizlikdan qo'l uradi bu ishga quvonchning yo'rig'i boshqa. Kishi har qanday quvonchni ko'tara olishi mumkin, lekin g'amni kim bilandir bo'lishgisi keladi. She'r-qisib-bostirib kelayotgan dard zarbalaridan qochishning eng shaxsiy yo'li" – deydi taniqli adib va olim Ulug'bek Hamdam" [9].

Darhaqiqat, haqiqiy shoirni ilhomning, ichki bir dardning o'zi tinmay ta'qib etadi, ana shundan bir go'zal she'r paydo bo'ladi. Eshqobil Shukurning qalbi haqiqatni izlab, to'lib ketganidan, dardlari toshib ketganidan qo'lga qalam oladi va xayolan tarixning eng qadim davriga murojaat etadi. "Tashlab ketilgan ming yilliklar" nomli II she'riy parchada shoir erkinlikni qumsagan qalb hasratini to'kib soladi. Tarix sahifasidagi o'tmish xotiralardagi go'yo mum tishlagan odamdek qotib qolgan inson dardini, xalq dardini tasvirlaydi. Ana shu dardlarni eldan elga, asrdan asrga olib yuruvchilar, ya'ni – "she'r" va "shoir"ni o'zgacha bir tashbehlarida ifoda etadi. E'tibor qaratamiz:

Og'iroyoq toshlarning homilasi-shoirlar,
Uch ming yildan beri dardning tishlari bilan
Ayamay yuragin tishlab kelgan shoirlar.
Toshlarning tor qornida uch ming yildan beri
Yuzlab mashrablar yagona bir she'rni aytar,
Toshlarning to'lg'og'i haqida u she'r...
U she'r...
Og'iroyoq toshlarning homilasi- shoirlar... [10].

Darhaqiqat, Eshqobil Shukur ta'biri bilan aytganda tarixiy haqiqatlarni u davrdan bu davrga tashib kelayotgan insonlar "ayamay yuragin tishlab kelgan shoirlar"dir. "...inson mohiyati turli davrlar she'riyatida turlicha jilo beradi. Chunki har bir davr alohida spetsifikaga ega ijtimoiy-psixologik muhit sifatida insonga-shoirlarga o'z ta'sirini o'tkazadi va bu ta'sir shoir orqali she'rga ko'chadi. Shu tariqa she'riyat shoir tomonidan taklif etilgan davr siyratini aks ettiruvchi ko'zguga aylanadi. Zero, shoir shaxsini muayyan iqlimli davr yoki davrlar yetiltiradi. Shunga ko'ra, uning she'riyati o'zi mansub bo'lgan davr (yoki davrlar) ruhi bilan to'yingandir. Binobarin, ma'lum ma'noda she'r davr farzandi hamdir. Lekin she'r muayyan bir davrgagina bog'lanib qolmaydi, shunday she'rlar borki, ular davrlar osha yashaydi. Bunda shoir shaxsi muhim o'rin tutadi. Chunki shoir individlik qobig'ini yorib, shaxslik maqomi sari boshlovchi yo'lga chiqib olgan yoki o'sha maqomga erishgan bo'ladi. Chunki shaxslik, avvalo, bir kalla baland bo'lib dunyoga boqishdir, o'tmish, hozir va kelajakni uzviy bog'liqlikda va o'zaro qonuniy aloqadorlikda ko'ra bilishdir, o'zlikni ko'pchilikning manfaati yo'lida fido qilish va eng muhimi, hayotni qalb amriga muvofiq qurish salohiyatidir. Shoir shaxsi ana shunday fazilatlar sohibi ekan, she'r ham shunga yarasha ma'nan yuksalib boradi. Shuning uchun ham shaxs-shoir qismat shoiri va u davrdan mavzu olishi barobarida o'rni kelganda unga mavzu ham beradi, bera oladi. Shu tarzda haqiqiy she'riyat faqat davrning farzandi bo'lib qololmaydi, u shaxs shoir qiyofasida davrlarga o'git beradi, uning holiga u yoki bu darajada ta'sir o'tkazadi" [11].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Eshqobil Shukur she'rlari o'zining ma'no-mazmuni kuchliligi, misralardagi so'z qo'llanishining o'zgachaligi, ifoda usuli bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, biz tahlilga tortgan she'rlardagi qadimgi turkiy yodgorliklarni, shu bahonada qadim va buyuk tariximizni yodga olishga yordam bergan, biz o'zbek xalqi azal-azaldan tengsiz tarixga ega xalq ekanligimizni yana bir bor eslatib o'tadi. Bizning xalqimiz ko'p tarixiy davrlarni boshidan kechirdi. Turli bosqinlar ostida ezildi, ammo hech qachon o'zligidan o'zbekligidan ayro tushmadi. Qadim tarixda ota-bobolarining qoldirgan milliy g'ururi, or-nomusini saqlab qoldi. Bu o'gitlar, mardlik, g'urur kabi tuyg'ular aks-sadosini biz ana shu qadim yodgorliklarimizda ko'ramiz. Buni bizga yetkazguvchi, albatta, Eshqobil Shukur kabi tarixini, qadim an'analarini unutmagan xalqparvar shoirlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Ulug'ov "Adabiyotshunoslikka kirish". "Universitet", Toshkent-2005.
2. Abdulla Ulug'ov "Adabiyotshunoslik nazariyasi". G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2018.
3. Dilmurod Qur'onov "Adabiyotshunoslikka kirish". "Fan", Toshkent-2007

4. Dilmurod Quronov Vahob Rahmonov. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherkalri."Fan", Toshkent-2008
5. Dilmurod Quronov "Adabiyot nazariyasi asoslari", "Noshir", Toshkent-2019
6. Эшқобил Шукур "Бобосуз изидан", "Adabiyot", Тошкент-2022
7. Eshqobil Shukur "Hamal ayvoni",
8. Qozoqboy Yo'ldosh "So'z yolqini", G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2018.